

JAHON QO'G'IRCHOQ TEATRI TARIXIGA NAZAR

Xakimova Nigina Olimjon qizi – *tayanch doktorant*
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch so'zlar: qo'g'irchoq teatri, tarix, antik davr, tomosha, ensiklopediya, bolalar o'yinchoqlari, marosimlar, teatrshunos, tarixchilar.

Ключевые слова: кукольный театр, история, древность, зрелище, энциклопедия, детские игрушки, обряды, театровед, историки.

Key words: puppet theater, history, antiquity, spectacle, encyclopedia, children's toys, rituals, theatergoers, historians.

KIRISH

Teatr san'ati necha ming yillik tarixga ega bo'lgan, asrlar osha yashab kelayotgan san'atning eng go'zal va jonli turidir. Teatrni jonli san'at turi deyishimiz bejiz emas. Teatr tomoshabin bilan jonli muloqot qiladigan, tomoshabinni o'z ichki olamiga olib kiradigan sehrli va sirli dargohdir.

Teatrning vatani barchaga sir emaski, qadimgi Yunoniston va Rim o'lkasidir. Yunonlar va rimliklarning "Ommaga non va tomosha bering" shiori soddaroq qilib aytilgan bo'lsada, xalq turmushining ikki muhim jabhasini ifodalagan. Mazkur jumla orqali yashash uchun non qanchalik zarur bo'lsa, tomosha ham xalq tafakkuri uchun shunchalik zarur ozuqa ekanligini va teatrni non kabi e'zozlashganligini guvohi bo'lamiz. Chunki teatrdagi tomoshalar bir vaqtning o'zida ham buyuk tariximizni, bugungi hayotimizni va jamiyat taraqqiyotini aks ettira oladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ikkinchi tomondan esa teatr sintez san'at turi hisoblanganligi uchun ham, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhin o'rin tutadi. Undagi dramaturgiya, musiqa, raqs, tas'viriy san'at, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Bu umumiylikni qamrab olgan teatr san'atining tarkibidagi qo'g'irchoq teatri san'ati o'z mavqeiga ega san'at turlaridan biri bo'lib, o'zining go'zal tarixi va taraqqiyotiga ega san'at turidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo'g'irchoq teatri – sehrli dunyo bo'lib, dunyo, inson va insoniyatning eng buyuk modellaridan biridir. Qo'g'irchoq teatri jahondagi ko'p xalqlarga qadim zamonlardan buyon qadrdon. U jamiyatning taraqqiyotida muhim rol o'ynab kelgan. Bashariyat madaniyatining buyuk namoyandalari Servantes va Gyote, Lessing va Dikens, Svift va Lessaj, Gayden va Glyuk, Tagor va Nozim Hikmat, Lorika va Fuchik kabilarning bu san'atga yuksak baho berib, katta e'tibor bilan qaraganliklari ham shundan dalolat beradi.

Ingliz yozuvchisi J.Svift shunday degan edi: «qo'g'irchoq teatri inson dunyosini barcha

noodatiy narsalar bilan namoyish etish uchun yaratilgan. Qo'g'irchoqlar emas, balki tirik odamlar o'ynaydigan dramatik teatrdan farqli o'laroq, qo'g'irchoq teatri ancha bardoshlidir. Uning qo'g'irchoqlari ko'p asrlar davomida yashashga qodir va tajribali qo'g'irchoqbozning qo'li bilan boshqariladigan har qanday qo'g'irchoq har qanday vaqtda jonlanib, tomoshabinlar uchun - qirollar, hunarmandlar, zodagonlar, savdogarlar, yollangan askarlar - yuz, ikki yuz, to'rt yuz va sakkiz yuz yil davomida hayratga tushgan qo'g'irchoq komediyasini qayta o'ynashga qodir».

Qo'g'irchoqning tarixi va u qanday qilib madaniyatimiz timsoliga aylangani haqida so'z ketar ekan, bu soha bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar Rossiya teatri tarixchisi va teatrshunosi Boris Pavlovich Goldovskiy tomonidan o'rganiladi va "Qo'g'irchoqlar ensiklopediyasi"ni yaratadi. Bu ensiklopediyada qo'g'irchoq teatri tarixi bilan bog'liq bo'lgan barcha atamalar yig'iladi va alifbo tartibida ensiklopediyaga kiritib chiqiladi. Mazkur ensiklopediyada biz antik davr qo'g'irchoq teatri tarixidan tortib, xar bir davlat qo'g'irchoq teatri tarixi, kelib chiqishi, xalq qo'g'irchoq qahramonlari, qo'g'irchoq turlari va qo'g'irchoq teatri san'ati bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

MUNOZARA

Ensiklopediyada qayd etilishicha, ilk qo'g'irchoq tomoshalari haqida ma'lumotlar qadimgi Gretsiya, Rim va Misrga tegishli bo'lib, antik qo'g'irchoq teatri, zamonaviy Yevropa qo'g'irchoq san'atining beshigi hisoblangan. Eng yirik muzeylarda qadimgi Rim qo'g'irchoqlari mavjud bo'lib, ular o'zlariga bog'langan iplar yordamida harakatlana oladigan hunarmandlar va hayvonlar ko'rinishini tasvirlagan. Italiyalik olim, akademik Ignazio Castello XIX asr o'rtalarida yozgan dissertatsiyasida qadimgi Yunonistonda enagalar va onalar bolalarga turli xil tumorlar va tumorlar bilan birga harakatlanuvchi tana qismlari bo'lgan qo'g'irchoqlarni berish odati bo'lganligini

ko'rsatdi. Qadimgi yunon qo'g'irchoqlari yog'och va terakotadan yasalgan kichik san'at asarlaridir.

Aflotunning so'zlariga ko'ra, bolalar qo'g'irchoqlarni nafaqat hunarmandlar, haykaltarosh rassomlar, olimlar ham yasashni yaxshi ko'rishgan. Platonning ta'kidlashicha, Arximedning o'zi, qo'g'irchoqlarni yaratgan, ularni murakkab va juda aqlli mexanizm bilan ta'minlagan. Buyuk Aflotun o'z tinglovchilariga qo'g'irchoqni ushlab, munosib hayot va munosib o'limni o'rgatadi: «tasavvur qiling, do'stlarim, har birimiz xudolarning irodasi bilan tug'ilgan jonli tasvirni taqdim etamiz. Bizni harakatga keltiradigan ehtiroslar bizni turli yo'nalishlarda tortadigan ko'plab iplarga o'xshaydi. Qarama-qarshi harakatlar bizni qarama-qarshi yo'nalishlarga yo'naltiradi. Biz yomonlik va fazilat o'rtasidagi farqni bilamiz. Sog'lom fikr bizni ushbu iplardan faqat bittasiga bo'ysunishga va qolganlarini qat'iyat bilan rad etishga o'rgatadi. Bu bitta ip aql va qonunning "oltin" ipidir. Qolganlari temir kabi qattiq. Faqat u turli xil harakatlarga yolg'iz o'zi yordam beradi, chunki u oltin: u doimiy shaklga ega, qolganlari esa turli xil shakllarga ega. Va ularning barchasi qonunning ushbu rishtalariga bo'ysunishi kerak».

Antik davrda xudolar, hayvonlar, mahluqlar tasviri bilan mexanik tarzda harakatga kelgan qo'g'irchoqlar, qo'g'irchoq-avtomatlar – marosim, bayramlarda, maydonlarda, asosan diniy maqsadlarni ko'zlab o'ynatilgan.

Bu qo'g'irchoqlarning boshlari, qo'llari, oyoqlari, ko'zlari, butun tanasi harakatga kelgan. Qo'g'irchoqlar yog'ochdan, fil suyagidan, temirdan, matodan yasalgan. Ularni yasovchilarni qadimgi Gretsiyada tavnaturglar – ("mo'jiza yaratuvchilar") deb ataganlar. Qo'g'irchoq tomoshalari Rimda ham juda mashhur bo'lgan: oddiy xalq, qullar orasida ochiq maydonlarda alohida, oliy irq vakillariga alohida tomoshalar ko'rsatilgan. Mazkur qo'g'irchoq tomoshalari repertuarini asosan parodiyalar, tragediyalarga kulgili o'xshatmalar, hajviy dialoglar, mashhur ulamolar va harbiylar ustidan kulgili hikoyalar egallagan, ochko'zlik, ahmoqlik, boqibeg'amlik ustidan kulingan. Tomoshalar tragediyalar ko'rsatilgan amfiteatrlardan farqli o'laroq protseniumda emas, balki orkestraning kichik qismida shirma tortilib o'ynalgan. Notiqlar voqealarni bayon qilib borgan.

Ilmiy izlanishlar natijasida Rossiya teatri tarixchisi va teatrhunosi Boris Pavlovich Goldovskiyning ensiklopediyasini o'rganar ekanmiz, mazkur ensiklopediyada tarixchi olim jahon xalqlari qo'g'irchoq teatri tarixiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Biz ham mazkur

ensiklopediyaga tayangan holda, jahon xalqlari qo'g'irchoq teatri tarixidan dalillar keltirgan holda mavzuni o'rganib chiqamiz. Qadimgi Rimda bolalar qo'g'irchoq'i juda mashhur bo'lgan. Italiyaning Korneto shahrida qabrlardan birida oltita bolalar tobuti topilgan bo'lib, u yerda juda ko'p mohirlik bilan ishlangan qo'g'irchoqlar bo'lgan. XVIII asr italiyalik professori Mark Antonio Boldettining "Muqaddas shahidlarning qabrlari" ilmiy asarida, masalan, bolalar qo'g'irchoqlarining shunday tavsifi mavjud: «Bolalar qabrlarida topilgan fil suyagi haykalchalari olti yoki undan ortiq dyumga ega va bo'g'inlarda egilgan tanasi, qo'llari, oyoqlaridan iborat bo'lib, ularda teshiklar mavjud.. u yerdan temir yoki mis simni barcha qismlarning harakatchanligi uchun o'tkazish mumkin edi. Bolalar bu kichkina figuralarni qayta tartibga solish yoki ularni teatr qo'g'irchoqlari kabi harakatlantirish orqali zavqlanishardi».

Geronning "Pnevmatika", "Mexanika", "Geodeziya", "Harbiy mashinalar to'g'risida", "Sinish va aks ettirish to'g'risida" ilmiy asarlari asosan antik davr texnik tafakkurining rivojlanishini belgilab berdi. Geron shu bilan birga, avtomat - o'ziyurar qo'g'irchoqlar haqidagi asarlar muallifi ham edi. Bu ilmiy asarlar bizning davrimizgacha yetib keldi. Lekin afsuski, uning mexanik qo'g'irchoqlarining rasmlari saqlanib qolmagan. Tarixchi Titus Liviy turli xil ajoyib hodisalarni tasvirlab, miloddan avvalgi 273-yilda bo'lib o'tgan bayramlarda qo'g'irchoqlar mavjud bo'lganligi haqida gapirib beradi. Shunga o'xshash dalillar juda ko'p. Ularning ta'kidlashicha, o'yin qo'g'irchoqlari qadim zamonlardan beri tarbiyaviy va pedagogik funksiyalarni bajarib kelgan. Suqrot shahar sayrlarida yurar ekan, qo'g'irchoq kulbalari oldida uzoq vaqt turadi va bu harakat faylasufda inson hayoti va insoniyat taqdiri haqida yangi fikrlarni keltirib chiqaradi. "Inson Xudo tomonidan boshqariladigan qo'g'irchoqdir", deb ta'kidlaydi Aristotel ham. Bundan tashqari, XIII asrda yashagan Arab yozuvchisi Abu – Shakar o'z talabalariga bir vaqtlar Aristotel – shogirdi Aleksandr Makedonskiyga qulflangan qutida bir nechta mum qo'g'irchoqlarni sovg'a qilgani haqida gapirib beradi. Shu bilan birga, u Aleksandrqa qo'g'irchoqlar qutisini ochish va yopish paytida aytishi kerak bo'lgan sehrli so'zlarni aytadi. Aristotel bu mum askarlar yordamida shogirdi Aleksandr Makedonskiy janglarda g'alaba qozonishiga ishongan. Qo'g'irchoqlar Aleksandrqa qanchalik yordam berganini aytish qiyin, lekin u hayoti davomida hech qanday jangda yutqazmagan.

NATIJALAR

Antik davr qo'g'irchoq teatri repertuarida bolalar tarbiyasiga asoslangan tomoshalar ham bor edi. Ular uchun qonunga rioya qilmaydigan va umumiy qabul qilingan me'yorlarni oyoq osti qiladiganlarning dahshatli taqdirini ko'rsatadigan spektakllar yozildi va ijro etildi. G'azablangan, yaramas bolalarni tiriklayin yutib yuboradigan Manduk - og'zi o'tkir tishlarga to'la, o'sha paytdagi bolalar spektakllarining eng mashhur qo'g'irchoq qahramonlaridan biri edi. Ota-onalar maslahatini e'tiborsiz qoldirgan bolalarni yeyishni istagan Mandukning monologlari yosh tomoshabinlarda chinakam qo'rquvni uyg'otardi. Ammo bu qo'rquv katarsis holatini keltirib chiqarar edi – bu ularning kelajakdagi taqdiriga foydali ta'sir ko'rsatadi deb hisoblangan. Ingliz rejissyori, rassom, teatr nazariyotchisi Gordon Kreyg zamonning tarixchilariga murojaat qilib, antik teatr tomoshalarini aktyorlar bilan emas, balki qo'g'irchoq o'yinlari bilan boshlaganligini (masalan, Qadimgi Misrda) ta'kidlagan edi. [1.7] Xaqiqatda ham Misrda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 4000 yildan ortiq vaqtga oid marionette qo'g'irchoqlari topiladi. Bu qo'g'irchoqlar unchalik katta bo'lmagan, 30-40 sm balandlikdagi fil suyagidan yasalgan kichik haykalchalar edi. Bu qo'g'irchoqlarning qo'llari harakatlanuvchanligi bilan ham alohida ahamiyatga ega edi.

Taxminan bir asr oldin, Memfis va Thebes qabrlarida ko'plab bolalar o'yinchoqlari topilgan. Ularning aksariyati nafaqat hayvonlar va odamlarning haykallari, balki teatr o'yinlari uchun yaratilgan harakatlanuvchi qo'g'irchoqlar edi. Tanadan ajratilgan oyoq va qo'llariga iplar, simlar va arqonlarni bog'lash bilan ularni harakatga keltirish imkoni yaratilgan. Leyden muzeyida biz misr qo'g'irchoq'i mavjud bo'lib, u o'z ishiga egilgan hunarmand ko'rinishini tasvirlagan. Uning qo'llari va oyoqlarida maxsus bo'g'inlar mavjud bo'lgan, shuning uchun ham harakatlanayotganda bu qo'g'irchoq ishlayotgan odamning harakatlarini o'zida aks ettira olgan. Bu muzeyda boshqa qo'g'irchoqlar ham mavjud bo'lib, ular kiyimlarni yuvayotgan qadimgi kir yuvuvchi ayol va jag'i ko'tarilib tushishi mumkin bo'lgan timsohni gavdalanitirgan eksponentlar edi. Italiyalik olim Ignazio Castello o'zining XIX asr o'rtalarida yozgan dissertatsiyasida Qadimgi Misr va Qadimgi Yunoniston enagalari va onalarida farzandlari uchun turli xil tumor va harakatlanuvchi qo'g'irchoqlar sovg'a qilish odati

bo'lganligi haqida yozadi. Bu qo'g'irchoqlar haqiqiy san'at asarlari edi, - deya ta'kidlagan edi Ignazio Castello o'z dissertatsiyasida. Qadimgi Misrning diniy marosimlarida qo'g'irchoqlardan foydalanish to'g'risida oz bo'lsada, qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. «Tarixning otasi» Gerodotning xabar berishicha, Osiris xudosi sharafiga har yili o'tkaziladigan tantanali yurishlar paytida, ko'plab odamlar orasida «cheksiz granit sfenkslar bilan chegaralangan yo'l bo'ylab» ruhoniylar yurishi tashkil etilgan. Ruhoniylar yelkalarida xudolarning suratini o'zida aks ettirgan qo'g'irchoqlarni ko'tarib yurishgan. Qo'g'irchoqlarning boshi tomoshaga kelganlarga qaragandek o'girilgan va olovli ko'zlari bilan odamlarga qaragan.

XULOSA

Qo'g'irchoq teatri san'ati tarixi to'g'risida keltirilgan manbalardan ko'rinib turibdiki, bu san'at turi miloddan avvalgi yillarda vujudga kelgan va dramatik teatrga ham asos solgan. Qo'g'irchoq teatri ham drama teatri singari bayram va marosimlar ta'sirida vujudga keladi va sekin asta rivojlanib, tarbiyaviy ahamiyatdagi asarlar yaratishga xizmat qila boshlaydi. Qo'g'irchoq turlari ham makon va zamon ta'sirida vujudga keladi va rivojlanib boradi. Jahon qo'g'irchoq tarixiga oid ma'lumotlarni yig'ar ekanman, bu san'at tarixining naqadar qadimiyligi va boyligi meni o'ziga rom etti. Ayniqsa, Aristotelning “oltin ip” haqidagi fikri naqadar teran va purmanoligi bilan ham ahamiyatli edi. Aristotel qo'g'irchoq iplari orasida birgina oltin ip borligi va u ip boshqa iplar boshqaruvida ahamiyatli ekanligini misol qilar ekan, insonlarni ham munosib hayot kechirishi uchun mana shu oltin ip boshqaruviga alohida ahamiyat berishini uqtiradi. Mana shunday uzoq va boy tarixga ega qo'g'irchoq teatri san'ati bugungi kunda ham o'z tomoshabinlariga ega. Faqatgina bu tomoshabinlar bolalar ekanligi va asosan kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun asarlar yaratilayotganligi achinarli xollardan biridir.

Uzoq tarixga ega bu san'at turi faqatgina bolalar uchun emas. Qo'g'irchoqlar yordamida sahnalashtirilayotgan asarlar katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ham ko'proq yaratilsa va sahnalashtirilganlari esa repertuardan mustahkam o'rin egallab, tomoshabinlar e'tiboriga havola etilsa, qo'g'irchoq teatri san'atida yangi uslub va yo'nalishdagi spektakllar soni ortib borar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boris Pavlovich Goldovskiy. Qo'g'irchoqlar ensiklopediyasi.
2. A.Qurbonov. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. O'quv qo'llanma, Toshkent.
3. Смирнова Н. Искусство играющих кукол. – Москва: Искусство.

REZYUME. Mazkur maqolada jahon qo'g'irchoq teatri tarixiga nazar tashlanadi. Uzoq va boy tarixga ega qo'g'irchoq teatri olim va tarixchilar tomonidan o'rganilganligi ko'rib chiqiladi, ularning fikrlaridan dalillar keltiriladi. Asosan Boris Pavlovich Goldovskiyning "Qo'g'irchoqlar ensiklopediyasi" nomli ensiklopediyasidagi faktlardan foydalaniladi.

РЕЗИОМЕ. В данной статье рассматривается история мирового кукольного театра. Считается, что кукольный театр, имеющий долгую и богатую историю, изучался учеными и историками, приводятся факты из их мнений. В основном используются факты из энциклопедии Бориса Павловича Голдовского под названием "Энциклопедия кукол".

SUMMARY. This article will look at the history of the World Puppet Theater. A puppet theater with a long and rich history is considered to have been studied by scientists and historians, with evidence from their opinions. It mainly uses facts from Boris Pavlovich Goldovsky's encyclopaedia of Puppets.

KECHINMA SAN'ATI TO'G'RISIDA TUSHUNCHA

SH.R.Jaksilikov – *magistr*

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch so'zlar: aktyor, obraz, kompozitsiya, sahna, voqelik, baxolash, kuylovchi aktyor, rejissyor, dirijyor, pedagog-rejissyor, ritm, temp, sahnaviy hatti-harakat, voqiylik, dramaturg, pedagog, muallif, bastakor.

Ключевые слова: актер, образ, композиция, сцена, реальность, оценка, поющий актер, режиссер, дирижер, педагог-режиссер, ритм, темп, сценическое действие, реальность, драматург, педагог, автор, композитор.

Key words: actor, character, composition, stage, reality, evaluation, singing actor, director, conductor, teacher-director, rhythm, tempo, stage action, reality, playwright, teacher, author, composer.

Teatrlarning ko'pchiligida hukm surayotgan shartliliklardan nimasi bizga yaqinroq, kutilmagan va inqilobiy bo'lib ko'rinardi?

Zamondoshlarimizni hayratga soladigan narsa ruhiy realizm, badiiy kechinma va artistlik his-tuyg'ularining haqqoniyligi edi.

Bu-san'atimizdagi eng qiyin masala bo'lib, uzoq vaqt ichki tayyorgarlikni talab qiladi. Tuyg'uning ichki harakatlari oliy shuurlikka olib boradigan ongli yo'llar, faqat ana shulargina teatr san'atining birdan-bir haqiqiy asosi hisoblanadi. Hunarpazlik aktyorni sahnaga qanday chiqishga va o'ynashga o'rgatadi. Haqiqiy san'at esa aktyorda o'zida ongli ravishda ijodiy tabiatini beixtiyor tabiiy oliy shuuriy ijodga uyg'ota olishini o'rgatishi lozim. Sahnadagi ijrochilar ham, tomoshabinlar ham, sahnada sodir bo'layotgan voqeaga butun vujudi bilan berilib ketsa, demak hammamiz ham bir xil hayajon bilan ko'zatamiz. Ana shu muvaffaqiyatli chiqqan joylarini kechinma san'at deb tan olish mumkin. Aktyor butun vujudi bilan pesaga berilib ketsa, bundan yaxshi narsa yo'q. Ana shunday paytlarda aktyor o'zini qanday his etayotganini nima

qilayotganini sezmagani holda beixtiyor harakat qilaveradi, hammasi o'z-o'zidan, beixtiyor ravishda chiqaveradi. Baxtga qarshi bunday ijod hamma vaqt ham bizning izmimizda bo'lavermaydi.

- Bilasizmi, boshi berk ko'chaga kirib qolganga o'xshaymiz: ilhomlanib o'ynash lozim, lekin buni beixtiyor qilish kerak ekan, o'zingiz ko'rib turibsizki, biz bunga qodir emasmiz, buning chorasi bormi?

- Baxtimizga buning iloji bor!.. Bu yo'l ongning ijodga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatishidadir. Gap shundaki, inson qalbi ongimiz va irodamizga bo'ysunish qobiliyatiga ham ega. Mana shu xususiyat bizning ruhiy jarayonimizga beixtiyor ta'sir ko'rsatishga qodir. Shunisi ham borki, bunga erishish ancha murakkab bo'lgan ijodiy mehnatni talab qiladi, bu mehnat ongimizning bir qadar nazorati va bevosita ta'sir qilishi natijasida sodir bo'ladi. Bu mehnat ko'proq beixtiyor va irodamizdan holi ravishda bo'ladi. Bu ish mohir, yuksak iste'dodli, eng nozik, murakkab, sehrgar san'atkor bo'lgan organik tabiatimiz qo'lidan keladi xolos. Eng